

“LOKLI MINIATYURADA RUS ANʼANALARINING OʻZIGA XOS OʻRNI”

O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik

tarixi davlat muzeyi boʻlim mudiri

Djalalova Gavhar Toʻshpoʻlatovna

O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik

tarixi davlat muzeyi katta ilmiy xodimi

Gulchehra Erkinovna Abrorova

ANNOTATSIYA.

Ushbu maqolada Oʻzbekistonda qadimiy san'at turlaridan biri lokli miniatyura san'atining rivojlanishida va XX asrning ikkinchi yarmida ushbu san'atni qayta tiklashga boʻlgan harakatlar, fidoiy ijodkor insonlar, hamda hozirgi kunda lokli miniatyura san'atiga oʻzining munosib hissasini qoʻshgan Oʻzbekiston halq ustasi N.Xolmatovning ijodiy ishlari haqida soʻz yuritiladi.

Kalit soʻzlar miniatyura, pape-mashe, tempera, friz.

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассматривается развитие одного из древнейших видов искусства – искусства лаковой миниатюры в Узбекистане, возрождение этого искусства во второй половине XX века, деятельность самоотверженных творческих людей, а также творчество народного мастера Узбекистана Н. Холматова, внесшего достойный вклад в искусство лаковой миниатюры наших дней.

Ключевые слова: миниатюра, папье-маше, темпера, фриз.

ABSTRACT. This article examines the development of one of the oldest art forms – the art of lacquer miniature in Uzbekistan, the revival of this art in the second half of the

20th century, the activities of dedicated creative people, as well as the work of the national master of Uzbekistan N. Kholmatov, who has made a worthy contribution to the art of Uzbek lacquer miniature to the present day.

Keywords: miniature, papier-mache, tempera, frieze.

Miniatyura san'ati Markaziy Osiyo davlatlarida tasviriy va amaliy san'at turlari orasida jozibador va maftunkor san'at turlaridan biri bo'lib, uning rivojlanish jarayonlari uzoq tarixga borib taqaladi. Manbalarga ko'ra, surat solingan lokli qutichalar XVI asrda Buxoroda yasalgan. Bu davrdagi lokli miniatyura namunalari bizgacha etib kelmagan, hunarmandchilikning bu turiga xos bo'gan ko'pgina ishlab chiqarish jarayonlari esa unutilib ketgan.

Markaziy Osiyo hududida XIV-XVIII asrlarda amaliy san'atning bir turi hisoblangan lokli buyumlar tarixini chuqur o'rganadigan bo'lsak, dastlab qadimgi Xitoy, Yaponiya va Koreya halqlarida milliy san'at yo'nalishlaridan biri sifatida mavjud bo'lgan. Keyinchalik Xitoyning Evropa mamlakatlari bilan aloqasi rivojlanib, savdo yo'llari orqali avval tayyor mahsulotlar, so'ngra lokli jihozlarni tayyorlash texnologiyalari kirib borgan. Keyinchalik bu texnologiyalar Fransiya-Rossiya o'zaro savdo diplomatik aloqalari natijasida rus shaharlariga tarqaldi. Bu qutichalarning asosi karton bo'lib, zig'ir yog'ida qaynatilib ishlov berilgach, sirtida Evropa, rus rassomlarining rangtasvir asarlaridan nusxa ko'chirib bezatilgan.

Yurtimizda ushbu keng tarqalgan san'at turi an'analarini rivojlantirish bo'yicha XX asr yetmishinchi yillarning oxiri O'zbekiston madaniy hayotida muhim voqea sodir bo'ldi - o'tmishda mashhur bo'lgan san'at turi –papye-mashe (tosh qog'oz) ustiga lokli miniatyura chizish san'ati qayta tiklandi. Aynan shu yillarda O'zbekiston Rassomlar uyushmasining Badiiy jamg'armasi tomonidan tashkil etilgan "Usto" xalq san'ati ustalari birlashmasida xalq ijodining barcha turlarini saqlab qolish, rivojlantirish va qayta tiklash maqsadida, O'zbekiston halq rassomi va grafika ustasi Chingiz Axmarov rahbarlik qilgan badiiy naqshlarning eksperimental tadqiqot-ishlab chiqarish ustaxonasi tashkil etildi. Ushbu

ustaxonada yosh avlod ustalarining dastlabki lokli miniatyura asarlari paydo bo'la boshladi.

Lokli miniatyura san'atining shakllanish jarayoni murakkab kechdi. O'tgan davr mobaynida ushbu turi rivojida ikkita moyillik ayon bo'ldi. Birinchisi-miniatyura rangtasviri badiiy merosga ijodiy yondashgan holda va naqshin syujetda zamonaviy voqelikni aks ettirish bo'lsa, ikkinchisi – mumtoz miniatyuraning badiiy qonun-qoidalariga qat'iy rioya qilishdan iboratdir.

O'zbek miniatyurasining birinchi tashabbuskorlari orasida Niyozali Xolmatov, Shomaxmud Muxammadjonov, Abduvosit Qambarov, Natalya Soy, Munira Sotiboldieva, G'ayrat Kamolov, Abdug'ani Aldashev kabi insonlar bor edi. Ularning barchasi O'zbekiston halq rassomi Chingiz Axmarov rahbarligida ishlashgan edi. Ustaxona miniatyura sohasida ilk qadamlarni qo'yayotganligi sababli o'z xom ashyo bazasiga ega bo'lmagan. Shu sababli o'sha davrda taniqli adib va yirik jamoat arbobi Sharof Rashidov sa'yi harakatlari bilan bir guruh o'zbekistonlik miniatyurachi rassomlar Rossiyada Ivanovo viloyatidagi Palex hamda Moskva viloyatining Fedoskino qishloq hududlarida lokli miniatyurada ishlash mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olib qaytgan edilar.

Toshqog'oz mahsulotlariga sharqona rasm chizish texnologiyasi Fedoskino, Xoluy va Palex kabi mashhur rus markazlarining lok miniatyuralariga o'xshashligi ajablanarli darajada kashfiyot bo'ldi. Toshkent va Buxoro ustalari papye-mashedan shakllarni tayyorlashni, tuxum sarig'idan tayyorlangan tempera bo'yoqlarini tayyorlashni, tilla zarvaraqlarni eritib ularni tasvir yuzasiga surishni va o'zlari uchun maxsus mo'yqalamlar tayyorlashni boshladilar. Ushbu tajriba rasm texnologiyasi sohasida keyingi izlanishlar uchun boshlang'ich nuqtaga aylandi. Uslub masalasiga kelsak, bu borada o'rta asrdagi kitob miniatyuralarining klassik namunalariga murojaat qilishga qaror qilindi. Ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun boshlang'ich material oddiy karton bo'lib, unga moy va yelim takror-takror singdirilib, ma'lum tartibda qayta quritilganidan so'ng, karton yangi xususiyatlarga ega bo'ladi, yog'och kabi qattiq jismga aylanib, duradgor va tokarning qayta ishlashi uchun oson va qayishqoq holatga keladi. Shu bilan birga material o'zining yengilligi va o'ziga xos qayishqoqligi bilan yog'ochdan farq qiladi. Mahsulotlarga

to'rtburchak, silindrsimon yoki boshqa shakllar beriladi. Keyin ular bo'yaladi. Bezak kuchli vositadir. U asarni boyitishi yoki badiiy darajasini tushirishi mumkin. O'sha dastlabki yillari miniatyurist rassomning mahoratigagina emas, balki tasvirlanayotgan voqealarning talqiniga, musavvirning dunyoqarashi kabi omillarga bog'liq edi. "Usto" birlashmasining N.Xolmatov ustaxonasida Palex an'analarini o'rgangan holda birlashgan rassomlar, an'anaviy rangdor kompozitsiyalarni, qora fonda ishlashga moslashish ustida sinov va izlanishlar olib borishgan. Shu bilan birga ularning har birining o'ziga xos ijodiy yo'nalishlari shakllana boshlagan. Ular ishlagan miniatyura san'at namunalarida Alisher Navoiy dostonlari, xalq dostonlari, ertaklar kabi bir-biriga o'xshash mavzularda bo'lsada, lekin kompozision tuzilishi, rangdorlik va har birining o'ziga xos yechimi bor. O'zlarining yo'llarini izlash, zamonaviy insonning dunyoqarashiga mos keladigan manzaralarni ishlab chiqish shu tariqa boshlandi.

Bugungi kunda O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyning «lokli miniatyura» kolleksiyasi bilan tanishish go'zal va teran badiiy obrazlarning to'liq olamini ochib beradi. Muzey ekspozitsiyasida namoyish etilayotgan lokli miniatyura san'ati namunalari XX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi hamda uning asosini shakli, o'lchamlari va rasmlarning mavzularida turlicha bo'lgan qutichalar tashkil etadi. Miniatyurachi rassomlar o'z asarlari uchun mavzularni asosan she'riyat, afsonalar, ertaklarni olib chizishgan. Sharq go'zallari, mard yigitlar, musiqachilar, ovchilar, chavandozlar va chavandoz ayollar mingan ingichka oyoqli chiroyli otlar ularni sevimli qahramonlari bo'lgan. Muzey kolleksiyasining ko'zga ko'ringan namunalaridan biri O'zbekiston Badiiy akademiasining haqiqiy a'zosi, O'zbekiston xalq ustasi miniatyurachi rassom N.Xolmatovning lokli qutichalariga ishlangan «Layli va Majnun» (1982), lokli namoyonlariga esa «Farhod va Shirin» (1982), «Darvish» (1989) kabi asarlarni keltirishimiz mumkin. Lokli miniatyura sohasida qutichalarga ishlangan Sh.Muhammadjonovning «Mehir va Mushtariy uchrashuvi» (1985), «Sevishganlar» (1986), S.Qoraboevning «Musiqqa» (1985), «She'riyat» (1985), «Ilhom» (1985), V.Lugovskiyning «Farhodning Axroman bilan olishuvi» (1986) singari miniatyura san'ati namunalari yaqqol misol bo'la oladi. Yuqorida nomlari zikr qilingan mahalliy rassomlarning 1980 yillardagi lokli miniatyura san'atini tiklash maqsadida turli ashyolarda

ishlab, izlanishgani bu san'at turini keyingi bosqichga olib chiqdi. Ustalar o'z asarlarini qog'oz, teri, yog'och va metall kabi ashyolarda o'zlarini sinab ko'rishdi. Ulardan keyingi avlod vakillari esa ustozlar yo'lini takiomillashtirib ular orttirgan tajribadan foydalanib, bu ashyo turlarini yanada ko'paytirishdi.

Klassik o'zbek adabiyoti mavzulari va islmiy uslubidagi ornamental kompozitsiyalar T.Kamolov, X.Nazirov tomonidan ham qutichalar, qalamdonlar, dekorativ likopchalar va qutilarga rasm chizishda ishlatilgan. Muzei kolleksiyalarini eng asl eksponatlaridan biri bu B.F.Kudinov tomonidan tayyorlangan shaxmat to'plami hisoblanadi. Uni bezatishda sharq miniatyurasi va ornamental rantasvirning stilistik uslublaridan foydalanilgan. Shaxmat taxtasida turli mamlakatlar shaxmatchilari o'yinchilarining ko'p figurali sahnalari tasvirlangan keng friz bilan hoshiyalangan. 32 shaxmat donasi sharqona personajlar qiyofasida tasvirlangan.

Hozirgi kunda O'zbekiston amaliy san'ati va hunarmandchiligi tarixi davlat muzeyida miniatyura san'atini yoshlar o'rtasida ommalashtirishga qaratilgan qator ma'rifiy tadbirlar, ustalar boshchiligidagi mahorat saboqlari ushbu miniatyura san'atini o'rganuvchi san'at muxlislari tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilmoqda. Bu esa o'z navbatida miniatyura asarlarini turli sath va ashyolarga ishlab, jahonda bo'layotgan turli ko'rgazma va tanlovlarda namoyish qilib kelayotgan O'zbekistonlik rassomlarning safi kengayib, sifati oshib borishi, ushbu san'at turiga nafaqat respublikamiz balki dunyo miqyosida e'tibor qaratilayotganligidan dalolatdir.¹

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. «Lokli miniatyura. O'zbekiston Madaniy merosi». O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi to'plami (Toshkent). «Silk Road Media», «East Star Media». Toshkent. 2001 йил.

¹ 297 бет. Б.Хаджиметов. “Ўзбекистонда локли миниатюра санъатининг ривожланиш жараёнлари”. “Ўзбекистон амалий санъат ва ҳунармандчилиги: анъана ва инновациялар” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция тўплами. К.Беҳзод номидаги Миллий рассомлик ва дизайн институти Тошкент. 2022 йил.

2. «O‘zbekiston amaliy san‘at va hunarmandchiligi: an‘ana va innovatsiyalar» mavzusidagi halqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Toshkent. 2022 yil.